

**BARQAROR RIVOJLANISH, IQLIM MUAMMOLARI VA  
YANGI MAQSADLAR**

**Qosimova Nodira Saidovna**

[nodiraqosimova2024@gmail.com](mailto:nodiraqosimova2024@gmail.com)

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti

**Shodiyev Ramshid Muxtor o‘g‘li**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

3-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Iqlim o‘zgarishlarining asosiy sabablari, hozirgi holati va uning insoniyat va tabiiy tizimlarga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Iqlim o‘zgarishlarining global miqyosda intensivlashishi, atmosferada issiqxona gazlarining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning asosiy sabablari sifatida fosil yoqilg‘ilarni yoqish, o‘rmonlarning kesilishi va qishloq xo‘jaligi faoliyatlari ko‘rsatiladi. Iqlim o‘zgarishlarining asosiy oqibatlarini, jumladan, global haroratning o‘sishi, muzliklarning erishi, ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, Parij kelishuviga qo‘shilish, yashil energiyaga o‘tish va chiqindilarni kamaytirish kabi yo‘nalishlar haqida ham ma‘lumot berilgan. Iqlim o‘zgarishlarini sekinlashtirish va ularga qarshi kurashish uchun global hamkorlikning zarurligi ta’kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:** iqlim o‘zgarishlari, issiqxona gazlari, global harorat, fosil yoqilg‘ilar, muzliklar, ekstremal ob-havo hodisalari, Parij kelishuvi, COP29, yashil energiya, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni kamaytirish, iqlim inqirozi, ekologik xavf, global hamkorlik, qurg‘oqchilik, suv resurslari.*

***Аннотация:** Рассмотрены основные причины изменения климата, его текущее состояние и влияние на человечество и природные системы. Интенсификация изменения климата в глобальном масштабе связана с увеличением выбросов парниковых газов в атмосферу, основными причинами чего являются сжигание ископаемого топлива, вырубка лесов и деятельность сельского хозяйства. Обсуждаются основные последствия изменения климата, включая повышение глобальной температуры, таяние ледников и учащение*

экстремальных погодных явлений. Также предоставлена информация о мерах, предпринимаемых для борьбы с изменением климата, таких как присоединение к Парижскому соглашению, переход на «зеленую» энергию и сокращение отходов. Подчеркивается необходимость глобального сотрудничества для замедления изменений климата и борьбы с их последствиями.

**Ключевые слова:** изменение климата, парниковые газы, глобальная температура, ископаемое топливо, ледники, экстремальные погодные явления, Парижское соглашение, COP29, зеленая энергия, возобновляемая энергия, сокращение отходов, климатический кризис, экологическая угроза, глобальное сотрудничество, засуха, водные ресурсы.

Iqlim o'zgarishlari, asosan, Yerning atmosfera va okeanlarida yuz berayotgan uzoq muddatli o'zgarishlar sifatida ta'riflanadi. Bu o'zgarishlar tabiiy va inson faoliyatining natijasi bo'lishi mumkin. XX asrning oxirlarida boshlanib, bugungi kunda insoniyat iqlim o'zgarishlari muammosi bilan to'liq yuzma-yuz keldi. Iqlim o'zgarishlari global ekologik tizimlarga, iqtisodiyotga, agrar sektorga, suv resurslariga va inson salomatligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqlim o'zgarishining ikkita asosiy sababi bor: tabiiy va antropogen (inson faoliyati bilan bog'liq).

**1. Tabiiy sabablari:**

- Vulqonlar va ularning atmosferaga chiqaradigan gazlari.
- Quyosh nurlanishining o'zgarishi.
- Okeanlarning aylanishi va tabiiy atmosfera sikllari (masalan, El-Nino va La-Nina).

**2. Antropogen sabablari:**

- **Issiqxona gazlari:** Issiqxona gazlarining, ayniqsa karbondioksid (CO<sub>2</sub>), metan (CH<sub>4</sub>) va azot oksidlarining atmosferaga chiqarilishi. Bular atmosferada issiqlikni ushlab turadi, natijada global harorat o'sadi.

- **O'simliklarning kamayishi:** O'simliklar karbonat angidridni yutish va kislorod chiqarish bilan iqlimni muvozanatda saqlaydi. Ammo o'rmonlarning kesilishi va yerlarni dehqonchilikda ishlatish ularning hajmini kamaytiradi.

- **Sanoat va transport:** Avtomobillar va sanoat ishlab chiqarishlari karbonat angidrid chiqindilarini oshiradi, bu esa issiqxona effekti kuchayishiga olib keladi.

- **Energetika sektori:** Neft, gaz va ko'mirni yoqish orqali chiqarilgan gazlar atmosfera haroratining ko'tarilishiga yordam beradi.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi global darajada kuzatilmoqda. Yerdagi o'rtacha harorat oxirgi 150 yil ichida sezilarli darajada oshdi. Jahon meteorologiya

tashkilotining (WMO) hisobotlariga ko‘ra, 2019-2023 yillar<sup>1</sup> dunyodagi eng issiq yillar bo‘ldi. 2024 yilga kelib, global haroratning o‘rtacha oshishi 2°C ga ko‘tarilgan<sup>2</sup>, bu esa sanoat davri (pre-industrial) bilan solishtirilganda juda katta o‘zgarishdir. Iqlim o‘zgarishlari nafaqat haroratning oshishi bilan bog‘liq. Unga boshqa bir qator o‘zgarishlar ham kiradi. Bu o‘zgarishlar dengiz sathining ko‘tarilishiga va ekstremal ob-havo hodisalarining (qurg‘oqchiliklar, yomg‘irlar, to‘fonlar) ko‘payishiga olib kelmoqda. Shimoliy va Janubiy Polorning muzlari tez eriyapti. Shimoliy qutbdagi muz qoplaminin hajmi har 10 yilda 13% ga qisqarmoqda. Grenlandiya muzliklari har yili 250 milliard tonna muz yo‘qotmoqda, Antarktidada esa yillik muz yo‘qotilishi 150 milliard tonnaga yetgan. Bu esa dengiz sathining 1901–2020-yillar oralig‘ida o‘rtacha 20 sm ga ko‘tarilishiga, shuningdek, mavjud ekosistemalar va hayvonot dunyosining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon hozirda yanada tezlashmoqda. 2100-yilga borib, dengiz sathi 0,63–1,01 metrga ko‘tarilishi mumkin (agar emissiyalar yuqori darajada qolsa).

Yalpi iqlim o‘zgarishi tufayli dunyo bo‘ylab to‘fonlar, kuchli yomg‘irlar, qurg‘oqchilik va boshqa ekstremal ob-havo hodisalari ko‘paymoqda. Ekstremal issiqlik to‘lqinlari soni 1980-yillardan beri 2 barobar oshgan. 2023-yilda dunyo bo‘ylab qurg‘oqchilikdan aziyat chekayotgan aholining soni 4 milliard kishiga yetdi. Oxirgi o‘n yilda to‘fon, suv toshqini va qurg‘oqchilik kabi ekstremal hodisalar 23 million kishining migratsiyasiga sabab bo‘ldi.

Iqlim o‘zgarishi sababli so‘nggi 50 yil ichida yovvoyi tabiat populyatsiyasi 69% ga kamaydi. Haroratning ko‘tarilishi sababli 1 millionga yaqin tur yo‘qolishiga olib keladi.

Iqlim o‘zgarishining asosiy sabablaridan biri issiqxona gazlari emissiyasidir. 2022-yilda global karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) chiqindilari 37 milliard tonnaga yetdi. Bu sanoat davrining boshlanishidan 50% ga ko‘proqni tashkil etadi. Atmosferadagi CO<sub>2</sub> konsentratsiyasi 2023-yilda 424 ppm (millionga nisbatan zarracha) darajasiga, metan (CH<sub>4</sub>) darajasi esa 1911 ppb (billionga nisbatan zarracha)ga yetdi. Bu so‘nggi 800 ming yil ichidagi eng yuqori darajadir.

Shu o‘rinda energiya iste‘molining 84% i hali ham neft, gaz va ko‘mir kabi qazib olinuvchi yoqilg‘ilarga bog‘liqligini takidlab o‘tish kerak. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh va shamol energiyasi, global energiya manbalarining faqat 12%-18% ni tashkil qiladi. Elektr transport vositalariga talab 2023-yilda 2020-

---

<sup>1</sup> 2011–2020-yillar o‘rtacha harorat **eng issiq o‘n yillik** bo‘lgan. 2023-yil esa tarixdagi eng issiq yil sifatida qayd etildi, 2023-yilning iyul oyida global harorat **17,23°C** ni tashkil etdi, bu tarixdagi eng issiq oydir

<sup>2</sup> (Manba: IPCC, 2023)

yilga nisbatan 3 barobar oshdi. Iqlim o'zgarishi tufayli dunyo iqtisodiyoti yillik 2,5 trillion AQSh dollari zarar ko'rmoqda. 2030-yilga borib, bu zarar yillik 4 trillion dollarga yetishi mumkin.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun global miqyosda bir qator tashabbuslar va kelishuvlar mavjud. Eng mashhur va ahamiyatli tashabbuslardan biri — **Parij kelishuvi (2015)** bo'lib, unda davlatlar global haroratni 2°C bilan cheklash uchun 2030 yilga qadar global karbon chiqindilarini 45% ga qisqartirish, 2050 yilga borib esa to'liq neytral holatga erishish uchun o'z majburiyatlarini belgilashdi. Shu bilan birga, qayta tiklanadigan energiya manbalariga, masalan, quyosh va shamol energiyasiga o'tish, o'rmonlarni tiklash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Iqlim o'zgarishi Konferensiyasi COP29 (2024 yil) xalqaro iqlim harakatini** bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha:

- Karbon emissiyasini kamaytirish majburiyatlari;
- Yashil energetika rivoji;
- Iqlim o'zgarishiga moslashish (Adaptatsiya);
- Moliyaviy va texnologik yordam olish;
- Milliy strategiya va xalqaro hamkorlik;
- Iqlim diplomatiyasini kuchaytirishga va uni barcha mintaqalar va sektorlarda inklyuziv va samarali bo'lishini ta'minlashga qaratildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, iqlim o'zgarishlari jahon miqyosida jiddiy muammo bo'lib, uning oqibatlarini kamaytirish uchun tezkor va samarali chora-tadbirlar talab etiladi. Bu borada xalqaro hamkorlik, ko'mir, neft va gaz kabi an'anaviy yoqilg'ilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi yangi energiya manbalariga (quyosh, shamol, gidroelektr stansiyalar) o'tish, Barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiatni asrashga qaratilgan iqtisodiy modelni yaratish, o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslashish uchun infratuzilmani optimallashtirish muhimdir. Har bir insonning iqlimni saqlash borasidagi mas'uliyati kundalik hayotda o'zgarishlar kiritishdan boshlanishini inobatga oladigan bo'lsak, davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan siyosat va qarorlar bu jarayonni sekinlashtirish yoki to'xtatish imkoniyatini berishini anglab yetishimiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **“Green Economics: An Introduction to Theory, Policy and Practice”** (M. L. J. S. Campbell) – Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va uning iqtisodiy modellari.

2. Yashil iqtisodiyotning O‘zbekistondagi rivojlanishi va amaliyoti haqida o‘rganishlar, xususan, “O‘zbekiston Respublikasida ekologik barqaror rivojlanish” va “Yashil energiya va energiya samaradorligi” mavzulari bo‘yicha hisobotlar va tahlillar.

3. **“O‘zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi”** – O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari va buni amalga oshirish bo‘yicha hukumat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar.

4. Saidovna, Qosimova Nodira. "O ‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING MOHIYATI." *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH* 3.26 (2024): 41-50.

5. Саидовна, Қосимова Нодира, and Дилдора Абдукаримовна Отамуродова. "КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎРНИ." *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting* 4.05 (2024): 171-177.

6. Saidovna, Kasimova Nodira. "THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MINERAL RESOURCES IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 3.6 (2024): 56-61.

7. Саидовна, Қосимова Нодира. "МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИ РИВОЖЛАНИШИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.2 (2024): 65-76.

8. Saidovna, Qosimova Nodira, and Sharifova Nargiza Khasanov. "MILLIY IQTISODIYOTDA IQTISODIY O ‘SISH VA DINAMIK MUVOZANAT." *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH* 2 (2023): 92-97.